

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

## NAVOIY ASARLARIDA INSON UMRINING DAVRLAR ASOSIDAGI TALQINI

Tohir Xo‘jayev

Navoiy DPI dotsenti, f.f.n.

**Annotatsiya:** Maqolada Alisher Navoiy asarlarida inson umrining turli davrlariga berilgan ta’rif va talqinlar tahlilga tortilgan.

**Kalit so‘zlar:** sig‘ar, tufuliyat, shabob, kuhulat, kibar.

**Аннотация:** В статье анализируются определения и интерпретации, данные различным периодам жизни человека в творчестве Алишера Навои.

**Ключевые слова:** сигар, туфулият, шабоб, кухулат, кибар.

**Abstract:** The article analyzes the definitions and interpretations given to different periods of human life in the works of Alisher Navoi.

**Key words:** sigar, tufuliyat, shabab, kuhulat, kibar.

Alisher Navoiy asarlarida inson, uning umri, yigitlik davri, qarilik xususida ko‘pdan ko‘p mulohazalar bildirilgan. Shoir insonning yashash davrini “sig‘ar” yoki “tufuliyat” – yoshlik, “shabob” – yigitlik, “kuhulat” – o‘rta yoshlik, “kibar” – qarilik, keksalik tarzida sharhlaydi. Har bir davrning yosh chegaralarini ham ko‘rsatib, ularni yil fasllari-bahor, yoz, kuz, qishga qiyoslaydi. Navoiyning deyarli barcha asarlari –she’riyati, dostonlari, nasriy asarlarida ham bu narsani kuzatamiz. Ayniqsa, “Xamsa”, “Xazoyin ul-maoniy”, “Nazm ul-javohir”, “Mahbub ul-qulub” kabi asarlarida bu jihat ko‘zga ko‘proq tashlanadi.

Har bir davrda, deyarli ko‘pchilik boshqa fasllarga qaraganda bahorni xush ko‘radi. Bu insonning yoshlik, yigitlik davri sifatida qaraladi. Navoiy ham yigitlik, yoshlikni inson umrining go‘zallik, aysh-u xursandlik davri deya baholaydi.

Shoir asarlarini o‘qir ekanmiz, uning inson umrining yoshlik, yigitlik, qarilik davrlari haqida turli mulohazalar bildirganini ko‘ramiz. Yoshlik, yigitlik haqida asosan yaxshi, umrning go‘zal va sevimli davri ekanligi bayon qilinadi. “Favoyid ul-kibar” devonidagi bir g‘azalda “Yigitlik bahor, kuhulat xazon, qarilig‘ qish” deb ataydi:

*Yigitlik o‘ldi bahoru kuhulat o‘ldi xazon,*

*Degay bu so‘zni –qarilig‘ni qishqa o‘xshatmish. [2.169]*

G‘azallarida yigitlik va qarilik qiyoslanadi. Har kishi yoshiga yarasha ish, harakat qilishini ta’kidlaydi. Yigit qari ishini qilsa, bu –nodonlik, qari esa yigit bo‘lishga intilmasligi, oq sochi va soqolini qoraga bo‘yash, boda ichib yuzini qizartirish, kampir yosh ko‘rinish ilinjida yuziga g‘oza surtishi, bo‘yanishi – “mabhut” – hayratlanarli.

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Navoiy fikricha, “Qarilig‘ istar esang, qarilarni hurmat tut”. Qariganda hurmat, e’tibor ko‘ray desang, yoshlikda qarilarni hurmat qil. Bu hamma uchun saboq.

Mazkur tushunchalar Navoiyning boshqa asarlarida ham keng sharhlangan. “Xamsa” asosida ba’zi mulohazalarni bayon etamiz.

“Hayrat ul-abror” dostonining 17-maqolati “Bahor yigitligi nazohatidakim...” deya boshlanadi. ‘Nazohat’ – tozalik, soflik degani. Shoir inson umrini yillar asosida talqin etadi. 10 yoshgacha inson g‘aflatda, 20 yoshgacha may-yu jahl, 30-40 ichra “aysh-u kom” girdobida bo‘lishini ta’kidlaydi. 50, 60, 70, 80, 90, 100 yoshlarning ham tavsifini keltiradi. Yigitlikni sarafroz (ulug‘vor, xursandlik) davrligini uqtiradi. Qarilikni esa, za’f (zaiflik), qad xamligi deb biladi.

Navoiy yigitlik va qarilik davrini to‘liqroq talqin etadi. Ularni bir-biriga qiyoslaydi, munosabatini bildiradi [2.279-289].

“Farhod va Shirin” dostonining 15-bobi Xoqonning o‘z taxtini Farhodga berish istagi xususida. Shu yerda buning sabablarini izohlab, o‘zining qariganini ta’kidlaydi. Yoshi 60 ga yaqinlashgani, “qarilik aybini yoshursa bo‘lmas”ligini, qari yosh bo‘lishni orzu qilib, oq soqolini yulish, oqni qoraga bo‘yashga urinsa, xijolat tortishini uqtiradi. Yigitlik ayshi bisyor bo‘lgani,” qariliq ranji dushvor’ligini aytadi [4.113].

“Saddi Iskandariy”da “Hikmat” sarlavhasi ostida yigitlik va qarilik xususida fikr yuritadi. Iskandar Arastudan bular haqida so‘raydi. “Tufuliyat” ayyomida shuur- aql hali to‘liq kamol topmagan, xato ishlar qilinishi, keyin shabob – yigitlik davri kelishi, bu davr aql va nafs kurashi davri ekanligi ta’kidlanadi. Shabob davridan so‘ng “kuhulat”-o‘rta yoshlik davri boshlanishi, bu davr aysh-u mayga berilish paytiligini uqtiradi. Undan keyin “shayxuxat”-qarilik, keksalik davri boshlanishi, bu vaqt “za’f”-zaiflik, inson tabiatida turli o‘zgarishlar davriligini bildiradi. [7.289-292] Dostonning 57-bobi “Yigitlik bahorning xushlug‘i...” deb boshlanadi. Xalq orasida, ko‘pincha yoshi ulug‘lar orasida “yoshligimni sog‘indim”, “qani endi yosh bo‘lib qolsaydim”, “yosh bo‘lgim kelyapti” kabi jummalarni eshitamiz. Bu – ko‘pchilikning istagi, ushalmas orzusi. Dostonda shunga monand fikr uchraydi. Shoir “Sog‘inib yigitlikni jo‘she topay!” (282-bet) deydi. Navoiy dunyoni, tiriklikni bog‘ga o‘xshatadi. Bu chorbog‘ yigitlik bahori bilan fayzli ekanligini ta’kidlaydi:

*Jahon chorbog‘ iki dilkashdurur,*

*Yigitlik bahori bila xushdurur (401-bet).*

Navoiy “Mahbub ul-qulub”da ham yigitlik va qarilik xususida alohida to‘xtaladi. Boshqa asarlarida bo‘lgani kabi bu asarida ham yigitlik, yoshlikni go‘zal, zavqli payt sifatida ulug‘laydi. Keksalikni g‘am, dard, zaiflik davri deya baholaydi. U kishilarga

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

murojaat qilib, yoshlikning qadriga yetish, uning har bir onini g‘animat bilishni, qarilik azobidan hushyor bo‘lishni bayon etadi:

*Ahbob, yigitlikni g‘animat tutungiz,  
O‘zni qariliq mehnatidin qo‘rqutunguz [5.115].*

Shoir “yigitlik umr gulshanining bahoridur va hayot shabistonining nahori” (114-bet) deb yozadi.

Navoiy “shayxuxat” haqida ham gapiradi. “Shayxuxat” nima? “Navoiy asarlari lug‘ati”da shunday yoziladi: “Shayxuxat a. 1.Qarilik, keksalik; 2.Shayxlik,eshonlik” [1.688]. Bu yerda biz birinchi ma‘noni nazarda tutamiz. Navoiyning boshqa asarlarida bo‘lgani kabi “Mahbub ul-qulub”da ham keksalikka qiyin, shod kishilarni xafa qiladigan,qadni egadigan davr sifatida baho beriladi: “Shayxuxat ayyomi nishot ahlin noshod qilurkim,odame qaddin xam qilur...” (115-bet)

*Afsuski, umri navjavonlig`ketti,  
Tang`a qariliqda notavonlig`yetti...(116-bet)*

Navoiyning “Nazm ul-javohir” asarida ham bir necha o‘rinda qarilik va yoshlik haqida mulohazalar bayon qilingan:

*Qo‘yg‘uvchi bog‘irg‘a huzn dog‘i qariliq,  
Solg‘uvchi g‘amu balo so‘rog‘i qariliq,  
Tutquvchi to‘la fano ayog‘i qariliq  
O‘lmak xabarin berguvchi dog‘i qariliq. [6.157]*

Navoiy nazarida qarilikning o‘zi og‘ir dard. Agar keksa kishi yuz marta so‘g-salomat bo‘lsa ham, qarilik dardining o‘zi yetarli. Shoir fikricha, keksalik – bu donishmandlik. Xalqimizda “Qari bilganni pari bilmaydi”, “Qarisi bor uyning parisi bor” kabi fikrlar mavjud. Navoiy aql va donishmand bo‘lmagan, bu sifatlari yo‘q qarilarni yoshlardan ham past deb biladi:

*...Andoq qarikim yo‘q anda oyini xirad,  
Ul yosh ortuqki, topti talqini xirad. (166-bet)*

Navoiy e‘tiroficha, o‘zida aql-u donishni odat qilmagan keksadan aqlli yosh ortiqroq.

Navoiy qarilikni og‘ir dard,inson umrining qiyin bir davri sifatida baholar ekan, ayrim o‘rinlarda ularga yaxshi munosabatda bo‘lish,ularning dilini og‘ritmaslik, izzat-ikrom ko‘rsatish zarurligini uqtiradi.Shoir nazarida, keksa – bu ota-ona, ustoz, pir, yoshi ulug‘ barcha kishlar.

Shoir merosida ko‘p uchraydigan pand-u-nasihatlar, inson, hayot, tiriklik, yashash mazmuni borasidagi o‘g‘itlarni otaning farzandiga, ustozning shogirdiga,

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

akaning ukasiga, ulug‘ donishmandning kelajak avlodiga yetkazayotgan hayot sabog‘i deyish mumkin.

Navoiyning uch kishi – Husayn Boyqaroning o‘g‘illari Badiuzzamon Mirzo, Shoh G‘arib Mirzo va o‘z ukasi Darveshaliga qilgan pandlari xuddi bugunning gaplaridek taassurot uyg‘otadi.

Ma‘lumki, Navoiy merosining bir qismini uning xatlari –“Munshaot” asari tashkil etadi. Shoirning Badiuzzamon Mirzoga yozgan qator xatlari ham xarakterli.

Navoiy bilan bu shahzodaning munosabatlari ancha yaxshi bo‘lgan. Husayn Boyqaro bilan Badiuzzamon Mirzo orasida bo‘lib turadigan nizo, kelishmovchiliklarni bartaraf etishda shoir ko‘p vaqt vositachilik vazifasini bajargan. Shahzodaga nasihatlar qilgan. Bu fikrlarni bir maktub orqali asoslash mumkin. Navoiy Badiuzzamon Mirzoga xat yo‘llab, Alloh roziligini ota roziligiga tenglashtiradi. Ota g‘azabiga uchragan Tangri taolo g‘azabiga duchor bo‘lishini ta‘kidlaydi. U mashhur shayxlarning “otang parvardigoringdur” degan so‘zlarini esga oladi. Ayni paytda mashhur adib Ahmad Yugnakiyning bir ruboiysini keltiradi:

*Atodin xato kelsa ko‘rma xato,  
Savob bil xato toki qilsa xato.  
Atoning xatosini bilgil savob,  
Seni yuz balodin qutqarg‘ay xudo [9.184].*

Bu – har bir farzand uchun shior. Bugungi kunda ba‘zan uchrab turadigan ota va farzand nizolari, arzimas narsalar sabab, otasini behurmat qilayotgan ayrim noqobillarga o‘ziga xos ibrat. Otaning har qanday kamchiligi, xatosini farzand qusur deb bilmasligi, uni savob o‘rnida qabul qilishi, shunda Alloh uni har qanday balo-yu ofatlardan omon saqlashi ta‘kidlanmoqda. Otasi Ya‘qubga bir ozgina odobsizlik qilgani uchun Yusuf payg‘ambar boshqa payg‘ambarlardan yetmish yil keyin jannatga kirgani, Hom ham otasi Nuhga tarki adab qilgani uchun rangi qora bo‘lib, uning nasli payg‘ambarlikdan judo bo‘lganini misol qilib ko‘rsatadi. Shoir Badiuzzamonning bu ishlarini Husayn Boyqaroning keksayib qolgani sababli qilayotgan bo‘lsa, noto‘g‘ri ekanligini, chunki farzand otasi zaiflashganda, qariganda ko‘proq xizmat qilishi, jonini nisor etishi kerakligini aytadi.

Navoiy qit‘alaridan birida qarilarning ko‘ngli nozik bo‘lishini,ularning qalbiga ozor yetkazib, odobsizlik – “gustox”lik qilmaslikni ta‘kidlaydi. Xalqda ko‘ngil nozikligi ko‘pincha shishaga o‘xshatiladi. Shoir esa daraxtning quruq shoxiga qiyoslaydi:

*Qarilar xotiri nozukdur, ey tiftl,  
Shikastidin qilib vahm,o‘lma gustox:*

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

*Unuttungmuki, atfol o‘ynag‘onda,*

*Sinar oz mayl ko‘rgandin quruq shox [8.725].*

Bu qit‘a “Atfolni qarilar xizmatig‘a yo‘ldamoq...” sarlavhasi bilan boshlanadi. Bu o‘quvchini asosiy maqsadga e‘tiborni qaratish uchun ham o‘ziga xos bir usul. Shoir aytmoqchi, keksalarning ko‘nglini olish, ularga xizmat qilish odob belgisi. Yoshi ulug‘larni xafa qilib qo‘yishdan ehtiyot bo‘lish kerak. Navoiy fikrini asoslash uchun hayotiy misol keltiradi. Qurigan shox mo‘rt bo‘ladi. Ozgina nojoiz harakat bilan uni sindirib qo‘yish mumkin. Shoirning bu mulohazalari bugunning eng dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Keksalarni e‘zozlash, hurmat-ehtirom ko‘rsatish, ularning ko‘ngliga mamnunlik kayfiyatini uyg‘ota olish har birimizning asosiy vazifamizdir.

## Adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Navoiy asarlari lug‘ati”. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1972. 688-bet.
2. Alisher Navoiy “Favoyid ul-kibar”. MAT. 20 tomlik. 6-tom. Toshkent: “Fan”, 1990. 169-bet.
3. Alisher Navoiy. “Hayrat ul-abror”. MAT. 20 tomlik. 7-tom. Toshkent: “Fan”, 1991. 279-289-betlar.
4. Alisher Navoiy. “Farhod va Shirin”. MAT. 20 tomlik. 8-tom. Toshkent: “Fan”, 1991. 113-bet.
5. Alisher Navoiy. “Mahbub ul-qulub”. MAT. 20 tomlik. 14-tom. Toshkent: “Fan”, 1998. 115-bet.
6. Alisher Navoiy. “Nazm ul-javohir”. MAT. 20 tomlik. 15-tom. Toshkent: “Fan”, 1999. 157-bet.
7. Alisher Navoiy. “Saddi Iskandariy”. MAT. 20 tomlik. 11-tom. Toshkent: “Fan”, 1993. 289-292-betlar.
8. Alisher Navoiy. Birinchi devon. G‘aroyib us-sig‘ar. Toshkent: “Tamaddun”, 2011. 725-bet.
9. Alisher Navoiy. Munshaot. MAT. 20 tomlik. 14-tom. Toshkent: “Fan”, 1998. 184-bet.